



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 10 (925)
7-iyun, dushanba
2021-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil
mardan chiqqa
boshlagan

BOLALARGA BERING DUNYONI!

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

“Eng yaxshi tarbiya – baxtli bolalikdir”, degan naqlning mohiyatida necha asrlarning chig‘irig‘i bor. Chunki bolalikning beg‘ubor onlarini mazmunli tashkil qilish, ilmga yo‘naltirish – bugunning katta talabiga aylandi. Zero, butun dunyo bolalari ertangi zamonaviy-innovatsion kelajakning egalari hisoblanadi.

1950-yildan e’tiboran 1-iyun “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” sifatida nishonlab kelinadi. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda qo‘shilgan. U – muqaddima, 3 qism, 54 ta moddadan iborat. Har bir bolaning yashashi, kamol topishi uchun asosiy makon oila hisoblanadi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 2-moddasiga muvofiq, ota-onas zimmasiga bolaning farovon hayot kechirishi va kamolga yetishi haqida g‘amxo‘rlik qilish, uning huquq va manfaatlarini himoyalash vazifasi yuklatilgan. Oilaning ichki hayotiga, bolalarning tarbiyasiga boshqalarning o‘zboshimchalik bilan aralashishiga, bola tarbi-

yasiga salbiy ta’sir o‘tkazishiga qonun yo‘l qo‘ymaydi.

Mamlakatimizda, shu jumladan, Ichki ishlar vazirligi qoshida “Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish markazlari” hamda “Sog‘lom avlod uchun”, “Bolalar sportni rivojlantirish”, Respublika bolalarni ijtimoiy moslashtirish markazi, “Bolalar fondi” kabi bir qator bola himoyasiga bag‘ishlangan fondlar tashkil etildi.

Albatta, bu ishlarning barchasi nihoyatda muhim, ammo bugun bola sog‘lig‘i eng ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Chunki sog‘lom avlodsiz kelajagi mustahkam davlatni qurib bo‘lmaydi. Buning qadimdan isboti sifatida buyuk sarkarda Amir Temur o‘z oilaviy an’anasiga ko‘ra farzandlariga kelin tanlashda, albatta, zotdor xonodon farzandlarini va yetti pushtining sog‘lom ekanligini hamda kelinlikka nomzod qizlarning ham sog‘lom ekanligiga katta ahamiyat bergen. Chunki buyuk sarkarda bilardiki, har qanday davlat islohotlaridan avval sog‘lom avlodni yetishtirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bugungacha barcha turkiy xalqlarda bu an’ana saqlanib kelinmoqda.

Sog‘lom avlodni voyaga yetkazish yurtimizdagи tibbiyotga ixtisoslashtirilgan oliy o‘quv yurtlarining va yurtimizdagи barcha sog‘liqni saqlash muassasalarining zimmasidagi katta mas’uliyatli vazifadir. Jumladan, yurtimizdagи barcha OTM-

lar qatori institutimiz jamoasi ham katta jasorat bilan o‘z burchiga munosib xizmat qilishyapti. Har o‘quv yili mobaynida jonfidolik bilan talabalarga bilim berib kelayotgan, ularning kelajagiga katta mas’uliyat bilan yondashayotgan professor-o‘qituvchilarimiz bola salomatligi mavzusida ham qator ilmiy izlanishlari bilan bugungi avlod sog‘lig‘iga e’tibor qaratmoqda. Kelajakdagи yetuk shifokorning asosiy siri ham talabalik yillardagi olingan bilimi bilan bog‘liqidir.

Institutimiz turli yo‘nalishlarda bolalar salomatligi posbonlarini yetishtirmoqda, shuningdek Xalqaro fakultet ham o‘z faoliyatini olib bormoqda. Aynan bola salomatligiga bag‘ishlangan ta’lim yo‘nalishlarida xalqaro tajriba almashinuvlar, anjuman, o‘quv seminarlari muntazam ravishta olib borilmoqda. Bu esa bugungi o‘zbek tibbiyotini jahon minbarligiga olib chiqishda hamda jahon tibbiyotdagi yantuqlarni vatanimizga tatbiq qilishda katta rol o‘ynaydi. Negaki, bugungi globallashuv asrida hech bir davlat tajriba almashinuvlarisiz tibbiyot sohasida katta yantuqlarga erisha olmaydi. Shu maqsadda institutimizda bir qator ilmiy va amaliy tajriba almashinuvlari o‘z tasdig‘ini topdi. Zero, bolalarning begonasi bo‘lmaydi. Qaysi millat farzandi bo‘lmasin, bola salomatligi uchun hammamiz birdek mas’ulmiz.

ROSSIYA SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING TAShRIFI

2021-yil 29-may kuni Rossiya Federatsiyasi Sog‘liqni saqlash vaziri M.A.Murashko boshchiligidagi Rossiya delegatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri A.M.Xadjibayev hamrohligida Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga tashrif buyurdi.

Tashrif chog‘ida Toshkent pediatriya instituti rektori institut foyesidagi Rossiya-O‘zbekiston hamkorligining yangi tarixini aks ettiruvchi videolavhani taqdim etdi. Shuningdek, B.T. Daminov institut faoliyatini to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tdi. Shundan so‘ng rektor delegatsiyani institut muzeyi bilan tanishtirdi, u yerda mehmonlarni institutning tashkil etilgan paytidan to hozirgi kungacha bo‘lgan tarixi bilan tanishtirdi.

Bundan tashqari, vazir institutning faxriy mehmonlari kitobiga iliq tilaklar yozib goldirdi.

Institut rektori delegatsiyani o‘quv auditoriyalar va institut ma’ruzalar majmuasi bilan tanishtirdi. Institut talabalari uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishish paytida Rossiya Federatsiyasi Sog‘liqni saqlash vaziri M.A.Murashko institutning yuqori texnologik jihozlanganligini va yaxshi moddiy-texnik bazasini alohida ta’kidlab o‘tdi.

Yoshlar anjumanlar zaliga tashrifi davomi M.A.Murashkoga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Yoshlar forumidagi nutqidan iqtibos sifatida devordagi yozuvga ko‘zi tushdi. Vazir ushbu so‘zlarni tarjima qilishni iltimos qildi: “Yoshlar – bebaho boyligimiz, kuch-qudratimiz va buyuk kelajagimiz timsoli”. Rossiya Federatsiyasi Sog‘liqni saqlash vazirligi rahbari Respublika Prezidenti tomonidan O‘zbekiston yoshlariga ko‘rsatilayotgan katta e’tibor va katta ahamiyatni quyidagi so‘zlar bilan ta’kidladi: “Qarang, Prezident mamlakat yoshlarini bebaho boylik sifatida ularni qanday qadrlaydi”.

Shuningdek, tashrif davomida mehmonlar institutning zamonaviy texnik vositalari bilan jihozlangan Innovatsiya markazi negizidagi IT-parki bilan tanishdilar, bu yerda institut talabalari va yosh mutaxassis-

lari yangi texnologiyalar va dasturlarni yaratish va amaliyotga tadbiq qilish ustida ishlayotganliklariga guvoh bo‘ldilar.

Shuningdek, M.A.Murashko talabalar mashg‘ulotlarida qatnashdi va talabalar bilan suhbatlashdi. Suhbat davomida vazir talabalarga omad tilab, quyidagilarni aytdi: “Sizlar hammangiz tibbiyotga qalbingiz undovi bilan keldingiz, shuning uchun sizga katta omad va bu kunlar yodingizda qolishini tilayman, sizlar uchun shunday yaxshi sharoitlar yaratgan yurtga munosib bo‘lishingizni xohlayman”.

Bundan tashqari, mehmonlar tananing anatomik qismlari tasvirlangan tibbiy rasmlar va lotin tilidagi tibbiy maqollar aks ettirilgan institutning o‘quv binosi devorlariga ahamiyat berishdi taqdim etildi. M.A.Murashko va delegatsiyaning boshqa a’zolari ushbu g‘oyani yuqori baholadilar va shunday dedilar: “Ajoyib. Ushbu rasmlar va iboralar talabalar uchun haqiqiy o‘quv va tibbiy muhit yaratadi. Ko‘rinib turibdiki, institut shunchaki ta’mirlanmagan, unga jon bilan yondashilgan va bu yerda butun jamaoa ish olib borgan”.

Shundan so‘ng ToshPTI rektori delegatsiya va killariga esdalik sovg‘alarini topshirdi.

ToshPTIga tashrifi yakunida institut rektori delegatsiyani kampus shaklida yaratilgan institutning infratuzilmasi bilan tanishtirdi va institut simulyatsiya markazining tashqi ko‘rinishini namoyish etdi. Shundan so‘ng delegatsiya samimiy qabul uchun institut rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi va institut vakillari bilan xayrashdi.

*Xasanxo‘ja ABIDOV
ToshPTI rektorining yoshlar masalalari bo‘yicha
maslahatchisi – institut
Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yoshlar
yetakchisi,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik
palatasi huzuridagi
Yoshlar Parlamenti a’zosi*



ILMNING MASHAQQATLI YO'LI

Ilm-fan inson aqliy faoliyatini mahsulidir. Hozirda shiddat bilan taraqqiy etayotgan dunyoda texnologik yutuqlar ko‘pchilik odamlar hayotining asosiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda hayotimizni biotexnologiya, kompyuter texnologiyalari va boshqa ilmiy yutuqlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Ilm-fan taraqqiyoti odamlarning o‘rganish, atrofdagi dunyoni anglash va uning sir-asrorlariga kirib borish istagiga, bilimga chanqoqligiga asoslangan. Insoniyat har doim atrof-muhitda sodir bo‘layotgan hodisalarga qiziqib kelgan. Ilm-fan insoniyatning dunyo haqidagi, uning qonunlari haqidagi bilimlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu bilimlarni egallash uzoq, tizimli, murakkab va izchil yo‘lni bosib o‘tish jarayonini talab qiladi. Insoniyat o‘z taraqqiyotida uzoq va mashaqqatlil bilim yo‘lidan o‘tgan va hozirda ham davom etmoqda. Shu bilan birga, taraqqiyot natijasida insoniyat eksperimental va nazariy faoliyat asosida o‘rganilayotgan obyektlarni yaxlit va ko‘p qirrali tushunishga, yanada to‘liq, mukammal, aniq bilim olishga intiladi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak ilm-fan yutuqlari ma’lum bir davrlarda ilmiy inqiloblarga sabab bo‘lgan, bilishning yangi tamoyillari, toifalari va usullarini yuzaga keltirgan. Buning natijasi o‘laroq yangi sohalar, ilm-fan yo‘nalishlari, ixtirolar vujudga kelgan, insonlar dunyoqarashini kengaytirgan hamda hayot sifati darajasi asrlar mobaynida takomillashtirib borgan. Mayjud bilimlarni chuqurlashtirish ko‘pincha yangi bilim sohalarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Bundan tashqari, ilmiy yutuqlar insoniyatning dunyoga ilmiy qarashlari tizimini, ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi va umuman inson tafakkurining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, bizning tibbiyat sohamizda ham o‘tgan asrimizning qirqinchi yillarda kashf etilgan penicillin antibiotiki ko‘plab insonlar hayotini saqlab qolgan.

Agar tibbiyat sohamizning asrlar davomida erishib kelgan ilm-fan yutuqlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yurtimiz tarixda faxrlanishimizga

sabab bo‘luvchi yirik namoyondalar vatanini bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz. Shubhasiz, ko‘p asrlar mobaynida tibbiyotda taraqqiyotga ilhomlantirgan Abu Ali ibn Sino bobomizga munosib bo‘lishga juda ko‘p olimlarimiz intilib kelishgan. Ayniqsa so‘nggi yuz yil ichida tibbiyotimiz behisob olim va olimalarga guvoh bo‘ldi. Shu jumladan, professorlar To‘raqulov Yolqin Xolmatovich, Vohidov Vosiq Vohidovich, Zufarov Komiljon Ahmadjonovich, Aripov O‘ktam Oripovich va boshqalarning xizmatlari katta bo‘lgan hamda ularning yutuqlari jahon olimlari tomonidan e’tirof etilgan.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyida ta’lim olib yurganimda olima ayol, professor Manzura Hamidovaning mashaqqatli umr yo‘llari bayon etilgan “Shonli yo‘l saboqlari” hamda Shomansurov Shomurod Shorasulovichning memuar asarlari bo‘lmish – “Vrach xotiralari” kabi ajoyib kitoblar qo‘limga tushgan edi. Ularni bitta o‘tirishda va ulkan zavq, katta qiziqish va hayrat bilan o‘qib chiqqanimni eslayman. Ularning ilm yo‘lidagi ibratli hayoti, o‘z kasbiga bo‘lgan ulkan muhabbat, bu yo‘ldagi jasorati menda o‘sha paytlar katta taassurot qoldirgan. Ularda o‘qishga, ilm olishga ishtiyoqi baland bo‘lganligi sababli o‘zlarida kuchli ishonch, intilish, o‘z ustida tinmay izlanishlari tufayli buyuk olim darajasiga yetishishgan.

Ilmga bo‘lgan qiziqishim maktabning yuqori sinfiga o‘qib yurgan kezlarimda boshlangan. Tabiiy fanlar bo‘lmish kimyo hamda biologiyani chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan intilishim hamda uztozlarim bergan bilimlari tufayli xalqaro miqyosdagি biologiya fan olimpiadasida jamoamiz bilan qatnashish imkoniyati bo‘lgan. Dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan tengdoshlarim bilan ushbu fandan o‘z bilimlarimizni sinovdan o‘tkazganmiz. Bu ilm-fanga bo‘lgan qiziqishimni yanada oshishiga sabab bo‘lgan va meni Toshkent Pediatriya tibbiyat institutining Pediatriya fakultetiga o‘qishga kirishimga yetaklagan.

Institutda bakalavriant bosqichida o‘qib yurgan kezlarimda talabalar ilmiy jamiyatining a‘zosi bo‘lishim menga



darsdan tashqari vaqtlarimda ustozlarim ko‘magi bilan kichik ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish imkonini bergen.

Ilmiy ishlarimning samarali davomi sifatida hozirda “Bolalar pulmonologiyasi” magistratura yo‘nalishida ustozim tibbiyat fanlari doktori Aliyeva Nigora Rustamovna rahbarliklarida ilmiy tadqiqot ishimiz ustida faoliyat olib bormoqdamiz.

Shifokor-olim bo‘lishga qaror qilgan har bir kishi mehnat faoliyatini davomiga teng bo‘lgan bilim va malakasini oshirish davrini munosib ravishda boshdan kechirishi lozim. O‘z-o‘zini takomillashtirish, bilim va ko‘nikmalarini doimiy va uslubiy ravishda kengaytirish - bu mashg‘ulotlar olimlarga butun hayoti davomida hamroh bo‘ladi, chunki ularsiz eng iqtidorli mutaxassis ham haqiqiy yuksaklikka va mehnat muvaffaqiyatiga erisha olmaydi. Va eng muhimi – shifokorning komillikka intilishidir, chunki bemorlarning sog‘lig‘i va hayoti uning har bir qaroriga bog‘liq. Shifokorlik kasbini orzu qilgan kishi o‘zining yuqori ish qobiliyatiga, fidoyilikka tayyorligiga va ulkan axloqiy va jismoniy tartibga bardosh berishga qodir ekanligiga amin bo‘lishi kerak.

Barno ABROROVA
1 – Gospital Pediatriya,
Xalq tabobati kafedrasи
2-bosqich magistratura rezidenti

ChASHMA KO‘Z OChDI ...



Rohilabonu G‘o‘chchiyeva – Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumanida 2000-yili 8-martda tug‘ilgan. U bolaligidan adabiyotga bo‘lgan qiziqishi tufayli o‘qib izlanib, 2018-yili Respublika Zomin yosh ijodkorlar seminari nasr yo‘nalishida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Shu yili yana uning yutuqlari safi yana bittaga ko‘paydi: “O‘zbekiston bahori – 2018” Respublika yosh ijodkorlar festivalida nasr yo‘nalishida 2-o‘rinni egalladi. Hozirda O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi. Shuningdek, bu mehnatsevar qizimizning maqola va ijodiy

ishlari respublika matbuotlarida muntazam e’lon qilib boriladi. Bo‘s sh vaqtlarida esa kareys va arab tillarini o‘rganadi.

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti nashriyot bo‘limi xodimasi – “Pediatr” gazetasi muharriri Rohilabonu G‘o‘chchiyevanining ilk kitobi “Birinchi kitobim” ruknida Respublika ijodfondi tomonidan moliyalashtirilib nashrga tavsiya etilgan edi. Rohilabonuning “Olasoyning olmasi” nomli hikoyalar to‘plami 2021-yili nashrdan chiqib, o‘z o‘quvchilarini topib ulgurdi.

“Adabiyot har bir millatning hisli ko‘ngil tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik) ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etila olmaydirgon bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasinda aning to‘lqini odamning har xil maishatiga qarab o‘zgaradur”.

Cho‘lponning “Adabiyot nadur?” maqolasidan keltirilgan ushbu fikrlar Rohilabonu G‘o‘chchiyevanining “Olasoyning olmasi” hikoyalar to‘plamini mutolaa qilish jarayonida yana xayolimda gavdalandi.

Rohilabonuning hikoyalarini o‘qiganingizda beixtiyor bolalik, qishloqning sodda odamlari, boring, ana, o‘zbekona urf-odatlar, qadriyatlar qalb tomiringizni chertib o‘tadi. Hikoyalardagi o‘ziga xos sheva, turli atama-

lar, o‘rinli qo‘llanilgan iboralar (Tolli tovning toshini nuratgan yigit), (nosqovog‘ini yo‘qotgan noskashdek) yurakka iliqlik beradi. “Olasoyning olmasi”dagi ixlos bilan uzatilgan olmanning yillar davomidagi orzuni ro‘yobga chiqarishi, “Yangi yil” hikoyasida yangi yil haqidagi tasavvurlarning bizning iqlimimizda yolg‘onlarga aylanib borayotganligi, eng yomoni, bolalar bu yolg‘onni har yili his etishlari va shu yolg‘on bilan ulg‘ayishlari, “Omonat” hikoyasida tirikchilik vajidan odamlarning boshqa davlatlarga ish qidirib ketishlari, farzandlar esa ota-onada mehridan bebahra qolayotganliklari nihoyatda sodda, beg‘ubor tarzda yoritilgan.

Qashqadaryoning Dehqonoboda yana bir chashma ko‘z ochdi, yosh qalamkash Rohilabonu G‘o‘chchiyeva adabiyot maydoniga ilk qadamini qo‘ydi, bu yo‘lda unga sabr-u matonat, mustahkam iroda, buyuk ijodkorlar ruhi madadkor bo‘lsin, deymiz. Zero, Navoiy bobomiz yozganlaridek: “Ermas oson bu maydon ichra turmoq...”

T. ABDISHARIPOVA
*ToshPTI akademik litseyi ona
tili va adabiyot o‘qituvchisi,
Berdaq ijodi bo‘yicha
ilmiy-amaliy maslahatchi*

PEDIATR TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИУТА
--

Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, Nashr uchun mas’ul: R. G‘o‘chchiyeva	Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay’ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o‘rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev
---	---

Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan. <hr/> Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223 <hr/> <hr/> Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.
--